

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Asatulloeva

Professional so'zlar ishtirok etgan maqol va frazeologizmlarning pragmatik tahliliga doir 5

R.A.Ortiqov

Ingliz mifologiyasini talabalarga o'qitishning zamonaviy asoslari 10

Q.V.Yo'ldor

O'zbek va qozoq xalq maqollarida kvantitativlik 14

A.G.Sabirdinov

Mirtemir she'rlarining milliy jozibasi 19

D.G'.Gafurova

Shamol-sarlavhali asarlarda inson va jamiyat tasviri 22

TILSHUNOSLIK

M.T.Abdupattoev

Muallif idiosilining lingvopoetik xususiyatlari 27

H.X.Алиева

Актуальность изучения диалектной лексики английского языка 32

H.X.Алиева

Интеграция традиционных и современных методов в исследовании лексико-семантических особенностей диалектов английского языка 35

H.X.Алиева

Региональное разнообразие английского языка и диалектное выравнивание в современной англии 41

L.A.Abdullayeva

Abbreviatsiya muloqot jarayonida til birliklarini tejash vositasi sifatida 46

M.R.Allamberganova

Kultegin yozma yodgorligida leksik takrorlarning ishlatilishi 51

U.M.Askarova

Birikma-kiritmalar va gap kiritmalar (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 56

A.A.Qosimov

Metaphorical dimensions: exploring the cognitive and cultural foundations of figurative language 61

M.E.Qobilov

Surxondaryo viloyati Qipchoq shevasi antroponimikasida enantiosemiya 69

G.X.Ismoilova

O'zbek va ingliz tillarida "farsihta/angel" va "shayton/devil" leksemalari ishtirok etgan maqollarining tahlili 73

U.M.Askarova

Avtomatik tahrir dasturlarining savodxonlikni rivojlantirishdagi o'rni 78

J.A.Akhrorova

Metonymy and its relation with discourse 81

Sh.U.Nosirova

Ingliz huquqiy matnlari tili leksik-semantik va grammatik xususiyatlarining lingvokulturologik jihatdan tahlili 84

Sh.U.Nosirova

Ingliz kasbiy muloqotida pragmatik vositalarning o'rni 89

U.M.Askarova, D.X.Xolbekova

Matn tuzilishida tinish belgilarining o'rni va vazifalari 93

A.R.Kosimov

So'zlarning shaxsga hissiy ta'siri xususiyatlari 97

Г.Н.Давлятова, Х.Б.Хотамова

Идиоматические выражения в свете лингвокультурологии 101

З.С.Аманова

Анализ культурно-исторических смыслов символов и знаков в современном информационном пространстве 105



UO'K: 81'24:004.912

AVTOMATIK TAHRIR DASTURLARINING SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI**РОЛЬ ПРОГРАММ АВТОМАТИЧЕСКОГО РЕДАКТИРОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ГРАМОТНОСТИ****THE ROLE OF AUTOMATIC EDITING PROGRAMS IN DEVELOPING LITERACY**

Askarova Umidaxon Maxamadjon qizi 
O'zbekiston milliy universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Bugungi raqamlashtirish jarayoni jadallashgan davrda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurati kundan kunga ortib bormoqda. Zamonaviy tahrir dasturlari nafaqat matnning tashqi ko'rinishini yaxshilaydi, balki tilni o'rganish va savodxonlikni rivojlantirishda ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Axborot oqimining kengayishi va tezkor almashinuv sharoitida avtomatik matn tahriri tizimlariga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Ushbu maqolada avtomatik tahrir dasturlarining savodxonlikni oshirishdagi o'rni, ularning afzalliklari va amaliy qo'llanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu texnologiyalarning o'quvchilarning yozma nutq madaniyatiga ko'rsatadigan ta'siri ham batafsil yoritilgan.

Аннотация

В эпоху стремительной цифровизации необходимость эффективного использования информационных технологий возрастает с каждым днём. Современные программы редактирования служат не только инструментом улучшения внешнего вида текста, но и важным средством изучения языка и развития грамотности. В условиях расширения информационного потока и быстрого обмена данными растёт потребность в автоматическом редактировании текстов. В статье анализируется роль программ автоматического редактирования в повышении уровня грамотности, их преимущества и возможности практического применения. Кроме того, подробно рассматривается влияние этих технологий на культуру письменной речи учащихся.

Abstract

In the current era of rapid digitalization, the need for effective use of information technologies is increasing every day. Modern editing programs not only improve the visual quality of texts but also serve as essential tools for language learning and literacy development. With the growing flow of information and rapid communication, the demand for automatic text editing systems is also rising. This article analyzes the role of automatic editing programs in enhancing literacy, explores their advantages and practical applications, and discusses in detail the impact of these technologies on students' written language culture.

Kalit so'zlar: avtomatik tahrir dasturlari, raqamlashtirish, savodxonlik, yozma nutq madaniyati, axborot texnologiyalari

Ключевые слова: программы автоматического редактирования, цифровизация, грамотность, культура письменной речи, информационные технологии

Key words: automatic editing programs, digitalization, literacy, written language culture, information technologies

KIRISH

Axborot texnologiyalari bugungi kunda turli fan sohalarida keng qo'llanilmoqda va ayni shu jarayon kompyuter lingvistikasining rivojida ham muhim o'rin tutadi. Xususan, matnlarning grammatik va imloviy jihatdan tahlil qilinishi ushbu yo'nalishning asosiy vazifalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Kompyuter lingvistikasi dastlab yo'nalish sifatida so'ng 1960- yilga kelib esa mustaqil fan sifatida shakllandi. Mazkur fan XX asrning o'rtalarida paydo bo'lgan matematik lingvistika fani asoslaridan kelib chiqqan. Tabiiy tillar grammatikasi formal modelining tuzilishi kompyuterda tarjima qilish, tillarga o'rgatish, bilimlarni matndagi testdan o'tkazish, matnlarni tahrirlash kabi amaliy dasturlarni ishlab chiqishga asos bo'lgan holda kompyuter lingvistikasini yaratdi. [Po'latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi: 37]

ASOSIY QISM

Avtomatik tahrir yo'nalishda R.G.Kotov, V.G.Britvin, I.A.Melchuk, A.B.Kuznetsov, L.I.Belyayeva, V.A.Chijakovskiy, G.G.Belogonov, I.S.Duganov kabilar samarali tadqiqot olib borgan. O'zbek tilida kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlar orasida S.Rizayev hamda


TILSHUNOSLIK

S.Muhamedova muhim hissa qo'shgan olimlar sifatida e'tirof etiladi. Olimlar asosan statistik tahlil yo'nalishi bo'yicha izlanishlarni amalga oshirishgan.

Kompyuter yaratilmasdan avval matnlar yozuv mashinkalarida terilgan. Bu jarayonda ko'plab xatolarga yo'l qo'yilgan. Misol uchun: grammatik, punktuatsion, orfografik, stilistik. Ushbu holatda matnni boshdan oxirigacha qayta yozib chiqishga to'g'ri kelgan, buning natijasida esa foydalanuvchiga ham vaqt tomondan va unga sarflanadigan kuch tomondan ham bir qancha qiyinchilik tug'dirgan.

Hozir esa matnlarni avtomatik tarzda tahrir qiluvchi va tekshiruvchi dasturlar keng tarqalgan. Masalan, MS DOS operatsion tizimida ishlaydigan va rus hamda ingliz tillaridagi matnlarni avtomatik tarjima qiluvchi dasturlar bunday texnologiyalarning aniq misoli hisoblanadi. Ular o'zbek tilidan tashqari boshqa ko'plab tillardagi matnlarni ham tahriray oladi.

Bundan tashqari internet tizimida mavjud tilmoch.uz veb sahifasidagi "Tahrirchi" bo'limi yoki matn.uz veb-sahifalari ham matnni avtomatik tahrir qilishda juda keng qo'llanib kelinmoqda. Avtomatik tahrir jarayonida berilgan matndagi so'zlarda xatolik mavjud bo'lsa ostiga qizil chiziq bilan ko'rsatib qo'yiladi. Chizilgan so'zga sichqonchani o'ng tugmasini bosish orqali to'g'ri



variantini qo'yish imkoniyatiga egamiz. Berilgan matnda umumiy nechta xatolik borligi esa monitoringni o'ng tomondan ko'rish mumkin.

Ushbu veb sahifalar o'zbek tilida lotin va kirill grafikasida bexato yozishda beminnat ko'makchi vazifasini bajarmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, demak, kompyuterda matnni tahrirlash birmuncha qulayligini bilishimiz mumkin.

Ammo, tanning ikki tarafi bor deganlaridek, yuqorida keltirilgan ushbu qulayliklar ba'zi foydalanuvchilar uchun salbiy oqibatlarga olib kelmaydimi degan fikr ham tug'iladi. Chunki, biz universitetda o'quv mashg'ulotlarda talabalardan bexato yozishni so'raganimizda ayrim talabalarning "Imloviy yoki uslubiy to'g'ri yozishimiz shart emas, kompyuterda matnni to'g'rilab beradigan programmalar bor" deyishlarini eshitib, achinasan kishi. Avtomatik tahrir va tahlil jarayoni makro matnlarni vaqtdan unumli foydalangan holda to'g'rilashdir. Biz bir narsani unutmasligimiz kerakki, biz kompyuterdan qanchalik oqilona foydalanishimiz albatta savodxonligimizga zarar keltirmasligi kerak. Kompyuterdan to'g'ri foydalanish yoki unga qaram bo'lish ham insonning o'ziga bog'liq.[Askarova U. Savodxonlikni oshirishda matnlarni avtomatik tahrir qilish tizimining o'rni. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunga kelib kompyuter lingvistikasi sohasida keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, A.Po'latov va S.Muhamedovalarning 2008-yilda chop etilgan

“Kompyuter lingvistikasi” nomli o’quv qo’llanmasi ushbu yo’nalishda olib borilgan dastlabki izlanishlardan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. Ushbu asarda matematik hamda kompyuter lingvistikasining boshlang’ich masalalari yoritilgan bo’lib, fan sohasining asosiy yo’nalishlari, shuningdek, rus tilshunosligi, turkologiya va o’zbek tilshunosligidagi tadqiqotlarga munosabatlar bildirilgan.

Mazkur qo’llanmani tayyorlash davomida mualliflar S.Adilovanning “O’zbek tilini o’qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish” nomli monografiyasi, shuningdek, A.Nurmonov va B.Yo’ldoshev tomonidan yozilgan “Tilshunoslik va tabiiy fanlar” o’quv qo’llanmasi, zamonaviy LINGVO kompyuter lug’atlari hamda turli internet manbalaridan samarali foydalanganliklarini ta’kidlash mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMA

Matnlarni avtomatik tarzda tahrirlash imkonini beruvchi tizimlar foydalanuvchilarga grammatik va imloviy xatolarni aniqlashda samarali yordam ko’rsatadi. Bunday dasturlar xatoliklarni ko’rsatib berish orqali insonning o’z kamchiliklarini anglashiga va ularni mustaqil tuzatishga zamin yaratadi.

Shuningdek, bu texnologiyalar orqali foydalanuvchilar o’z ifoda madaniyatini oshirib, so’z boyligini kengaytirish imkoniga ega bo’ladi. Bu holat nafaqat ta’lim jarayonida, balki ilmiy izlanishlarda ham yangi bilimlarni egallashni osonlashtiradi hamda shaxsiy savodxonlik darajasining oshishiga xizmat qiladi. Bu vositalar foydalanuvchilarga o’zlarining kuchli va sust tomonlarini tahlil qilish imkoniyatini ham beradi.

Zamonaviy jamiyatda har bir insonning to’g’ri yozish va so’zlay olish qobiliyati muhim hisoblanadi. Yozma nutq sifatini oshirish, imlo va uslubiy xatolarni minimallashtirish uchun matnlarni tekshirish va tahrirlash jarayoni zarurdir. Bunday xizmatlar matn sifati bilan bir qatorda muallifning ijtimoiy obro’sini ham oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, avtomatik matn tahrir qilish tizimlari nafaqat ta’lim jarayonini takomillashtiradi, balki keng ma’noda ijtimoiy taraqqiyotga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Ushbu texnologiyalar yordamida har bir shaxs o’z savodxonligini oshirish, to’g’ri yozish va muloqot qilish ko’nikmalarini mustahkamlash imkoniga ega bo’ladi.

Bunday tizimlar jamiyatda ta’lim sifati va madaniyatini oshirishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Zero, savodxonlik faqat individual yutuq emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning asosiy ko’rsatkichlaridan biridir.

Shuningdek, avtomatik tahrir vositalari nafaqat o’quvchilar, balki pedagoglar uchun ham samarali resurs bo’lib, dars jarayonini sifatli va tizimli olib borishga ko’maklashadi. Matn bilan ishlashdagi aniqlik, tahliliy fikrlash va ifoda uslubi bu tizimlar orqali yanada rivojlanadi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Abdurakhmonova N., Tuliyeu U., Ismailov, A., Abduvahobov G. Uzbek electronic corpus as a tool for linguistic analysis. In Компьютерная обработка тюркских языков. TURKLANG 2022 (pp. 231-240). 2022.
2. Askarova U. Kompyuter lingvistikasining kirib kelishi va uning bugungi kundagi ahamiyati. American journal of education and learning (pp. 538-543). 2025, February.
3. Askarova, U. (2025). Bosh va ikkinchi darajali bo’laklarning uyushishi (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida). *Farg’ona Davlat Universiteti*, 31(1), 83. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sifsu/article/view/5320>
4. Askarova U. (2025). Gapda uyushiq bo’laklarning o’rni va ahamiyati (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida). *Farg’ona Davlat Universiteti*, 31(3), 130.
5. Po’latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. O’quv qo’llanma. — T.: NTDP, 2008.
6. Rahimov A., Kompyuter lingvistikasi asoslari. O’quv qo’llanma. — T.: Akademnashr, 2011.
7. Raxmanov X.E., Sunatov J.T. O’zbek tili kompyuter lingvistikasi yo’nalishida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, maqola “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, Toshkent, 2022.
8. Sobirova N. Avtomatik tahrir asosiy yo’nalish sifatida. Academic Research in Educational Sciences. Multidisciplinary Scientific journal (pp. 77-82). 2024, June.
9. Xolmonova Z.T. Kompyuter lingvistikasi. O’quv qo’llanma. — T.: AKTIV PRINT, 2019.
10. Xudoyberganov N.U. Matnlarni avtomatik tahrir qilishda imlo lug’ati va grammatik qoidalarning o’rni. “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar” Respublika ilmiy-texnikaviy konferensiya, Toshkent, 2021.